



INSONNING HAYOT YO‘LINING ASOSIY KONSEPTUAL YONDASHUVLARI

Nodira Oribjonova

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'lumki, inson haqidagi zamonaviy tadqiqotlarda shaxsning hayot yo'li mavzusi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu muammo psixologiya, falsafa, antropologiya, pedagogika, sosiologiya, etnografiya va boshqalar kabi turli bilim sohalarining zamonaviy tadqiqotlari doirasiga kiradi. Ushbu muammoni yoritish tadqiqotchilar oldiga har tomonlama va eng chuqur ko'rib chiqishni talab qiladigan ko'plab savollarni qo'yadi. "Shaxsning hayot yo'li" tushunchasi keng va ko'p qirrali bo'lib, bu mavzuga qaratilgan yondashuvlar soni ham ko'pligi bilan ajralib turadi.

Xorij olimlaridan Yu.N.Dolgov o'z tadqiqotida shaxs hayot yo'lini tadqiq etishdagi yondashuvlarni tasniflab, xorijiy nazariyalarning ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga e'tiborni qaratdi. Unga ko'ra, dastlab umumiy psixologik nazariyalar bilan bog'liqlikka tayandi [1]. Xususan, u kompleks (sub'yekt-akmeologik) yondashuvni ajratib ko'rsatadi. Rus psixologiyasida shaxsning hayot yo'lini tadqiq etishda ushbu yondashuvning asoschisi S.L. Rubinshteyn hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, shaxs o'z hayoti davomida nafaqat voqealar ta'sirida o'zgaradi, balki sub'yekt sifatida o'z hayot yo'lining faol quruvchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. U o'z hayot yo'lini tashkil etadi, tuzadi, o'z rivojlanishi va hayotini boshqaradi hamda yo'naltiradi. Bundan tashqari, B.G.Ananov va uning shogirdlari hamda izdoshlari tomonidan taklif etilgan kompleks yondashuv V.S.Merlinning individuallikni integral tadqiq etish, N.A.Loginovanning hayot yo'lini o'rganishda biografik metod, N.M.Vladimirovning psixobiografik metodini birlashtirgan. Shuningdek, muallif hayot yo'lini ma'lum bir makon va zamonda kechadigan jarayon



sifatida o'rganuvchi yondashuvni ajratib ko'rsatgan. Ushbu yo'nalishda S.K.Nartova-Bochaver, K.A.Abulxanova-Slavskaya, T.N. Berezina, Ye.A. Golovaxa va A.A. Kronik, K. Levin, P. Fress kabi olimlar o'zining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Voqelik yondashuv kategoriyasiga muallif B.G.Ananev, R.A. Axmerov, A.A. Kronik (kauzometriya shaxs hayot yo'lini tahlil qilish usuli sifatida), L.F.Burlachuk, L.F.Korjova, N.A.Loginovalarning ilmiy izlanishlarini tasniflagan. Shaxsning hayot yo'lini o'rganishda voqea-vaziyatli yondashuv G'arb psixologiyasida birinchilardan bo'lib yorqin namoyon bo'ldi. U P. Jane va Sh. Byuler ishlarida o'z aksini topgan.

O'tgan asrning oxirida konstruksionistik (V.F.Petrenko, Ye.V.Yakimova, P.Berg, N.Lukman, D.Serl, K.Djerjen) va ekzistensial gumanistik (D.A.Leontev, S.L.Bratchenko, Ye.Ye. Vaxromov, K.V. Karpinskiy, R. Mey, G. Ollport, A. Maslou, K. Rojers, D. Byudjental) yondashuvlar eng ko'p e'tirof etildi va tarqaldi. Shuningdek, muallif ssenariy yondashuvini ham ajratib ko'rsatgan bo'lib, uning vakillari E.Bern va Yu.Styuartlar hisoblanadi. Yu.N.Dolgov o'z asarida xorij mualliflarning psixologik tadqiqotlarini tizimlashtirish, umumlashtirish va tavsiflash bo'yicha katta va muhim ishlarni amalga oshirdi. Ushbu muammoga yondashuvlarning xilma-xilligi va kengligini ko'rsatdi. Shaxsning hayot yo'li tushunchasi birinchi marta Sh. Byuler tomonidan taklif etilgan bo'lib, u inson hayoti sikllarining o'zgarishi, ustunlik qiluvchi tendensiyalar, yosh bilan bog'liq faollik darajasining o'zgarishi haqidagi qonuniyatlarni shakllantirdi. U shaxs hayot yo'lining uch yo'nalishini ajratib ko'rsatdi:

birinchisi – tashqi voqealarning izchil almashinuvida ifodalangan hayotning ob'yektiv oqimi;

ikkinchi yo'nalish – bu voqealarni boshdan kechirish va uchinchi – tashqi voqealarga nisbatan kechinmalarga asoslangan inson faoliyati natijalari. Shunday qilib, shaxs hayot yo'lining tarkibiy asosi sifatida voqea belgilandi va voqealar tashqi va ichki turlarga ajratildi. Shaxsning hayot yo'li dinamikadagi



individual hayot sifatida namoyon bo‘ladi. U tasodifiy emas, balki qonuniy bo‘lib, uni ham tasvirlash, ham tushuntirish mumkin. Asosiy harakatlantiruvchi kuch insonning “o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish” yoki “o‘zini o‘zi amalga oshirish”, ya’ni “o‘zini” to‘liq ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan tug‘ma intilishi”dir.

Rus psixologiyasida shaxsning hayot yo‘li mavzusi bilan S.L. Rubinshteyn yaqindan shug‘ullangan. Bu tushunchani u faqat organizmning taraqqiyoti deb emas, balki insonning shaxsiy tarixi taraqqiyoti deb qaragan. Ushbu individual tarix davomida “voqealar” – “shaxs hayot yo‘lining muhim nuqtalari va burilish bosqichlari” sodir bo‘ladi. Bu esa uzoq vaqt davomida insonning hayot yo‘lini belgilab beradi. S.L. Rubinshteyn hayot yo‘li tahlilining birligi sifatida quyidagi tarkibiy qismlarning nisbatini hisoblagan: buyumlar dunyosiga munosabat, boshqa odamlarga munosabat va o‘z-o‘ziga munosabat. Ushbu nazariyada inson o‘z hayotining sub’yekti bo‘lib, hayot yo‘li yuqoriga, ya’ni namoyon bo‘lishning yanada mukammal shakllariga tomon harakat sifatida talqin etiladi. Muallif kechinmalarni shaxs hayot yo‘lining sub’yektiv jihatida ko‘rib chiqqan, ular insonning hayotiy faoliyatini boshqarishi va o‘zlari hayot voqealariga aylanishi mumkin [2]. B.G. Ananov shaxsning tarixiy, dinamik va prosessual nazariyalariga tayangan holda shaxsning hayot yo‘lini tadqiq etgan. U insonning hayot yo‘lini “muayyan jamiyatda shaxsning shakllanishi va rivojlanishi tarixi” deb ta’riflaydi; “ma’lum bir davrning zamondoshi va ma’lum bir avlodning tengdoshi” [3]. B.G. Ananov hodisalarning sodir bo‘lishida insonning ishtirok etish darajasiga qarab, muhit hodisalari va xulq-atvor hodisalarini ajratib ko‘rsatgan. Birinchisiga tarixiy voqealar, mahalliy voqealar, hayot tomonidan “dasturlashtirilgan” voqealar kiradi. Inson ularga ta’sir ko‘rsata olmaydi, lekin o‘zi ularning jarayoniga jalb qilinishi mumkin. Ikkinchisiga insonning xatti-harakatlari kiradi, buning natijasida uning hayotida o‘zgarishlar yuz beradi. Voqea-harakatlar shaxsiy mazmunga ega, ular shaxsiy qadriyatlarni ifodalaydi. Ular ichki olamda yetilib,

mavjud sharoitda ro'yobga chiqadi. Hodisalarning uchinchi turi N.A. Loginova tomonidan taklif etilgan bo'lib, u ichki hayot voqealari bo'lib, ular insonning ma'naviy tarjimai holini tashkil etadi. Ularga insonning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va ichki dunyosining o'zgarishiga olib keladigan fikrlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari kiradi. T.M. Titarenko shaxs hayotiy dunyosining yaxlit o'zini o'zi rivojlantirishining strukturaviy-genetik modelini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiyada inson o'zining o'tmishi, buguni va kelajagini anglaydi, o'z ehtiyojlarini tushunadi va ifodalaydi va shu orqali shaxsiy rivojlanishi, faolligi va erkin xohish-irodasi orqali o'z hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi.

Xorij olimlaridan K.A. Abulxanova-Slavskaya insonning hayot yo'lini tashqi va ichki omillarning o'zaro ta'siri orqali ko'rib chiqadi. Inson o'z hayotining sub'yekti sifatida ro'yobga chiqadi. Insonning hayot yo'lini tavsiflar ekan, muallif quyidagi tushunchalarni qo'llaydi: "hayotiy pozisiya", "hayotiy chiziq", "hayot strategiyasi", "hayot mazmuni" va "hayotiy istiqbol". Shaxsning hayotiy dasturini amalga oshirishda asosiy omil faollik bo'lib, u insonning ajralmas xususiyati sifatida namoyon bo'ladi hamda hayot davomida rivojlanadi va dolzarb ehtiyojlardan kelib chiqadi [4].

Ma'lumki, Ye.P.Varlamova va S.Yu.Stepanov hayotiy strategiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadilar: ijodiy o'ziga xoslik, passiv individuallik, faol tipiklik, passiv tipiklik. Ushbu tipologiyaning asosiga quyidagilar qo'yilgan: shaxsiy o'ziga xoslik va hayot yo'lining asosiy bosqichlarida ijodiy faollikning namoyon bo'lish darajasi.

Shunday qilib, hayot yo'li – bu insonning o'z hayotini o'z g'oyasi bo'yicha qurish qobiliyati; rivojlanishning yosh bosqichlari ketma-ketligi bilan bog'liq bo'lgan shaxsning evolyusion yo'li; insonning shaxs namoyon bo'lishining yanada yuksak, mukammal shakllariga tomon harakatidir. Shaxsning hayot yo'liga oid hodisalarni tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Shaxs hayot yo'lining rivojlanish qonuniyatlarini

o'zlashtira borib, inson o'z rivojlanishining qulay yo'lini aniqroq tasavvur qiladi. Shaxsning hayot yo'lini rejalashtirish va amalga oshirishdagi rolini anglagan holda, inson unga, hayotiy maqsadlarni qo'yish va ularga erishishga mas'uliyatliroq yondashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. СПб.: Питер, 2001. 288 с.
2. Долгов Ю.Н. Основные направления исследований жизненного пути личности отечественных и зарубежных ученых (Опыт классификации) // Личность, семья и общество: вопросы педагогики психологии: сб. ст. по матер. XVIII междунар. науч.-практ. конф. Часть II. Новосибирск: СибАК. 2012. С. 107–110.
3. Логинова Н.А. События, обстоятельства жизненного пути и развитие личности // Психология жизненного пути личности: методологические, теоретические, методические и прикладные проблемы: сб. науч. ст. ГрГУ им. Я. Купалы; науч. ред.: Н.А. Логинова, К.В. Карпинский. Гродно: ГрГУ, 2012. С. 12–29.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер, 2002. 720 с.

